

ISH HAQI VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI MUTANOSIBLIKNING AYRIM DOLZARB MASALALARI

Yaxshimuratova Xasiyat Xudaybergenovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

To'rtko'l fakulteti o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ish haqi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, ularning makroiqtisodiy muvozanatdagi o'rni hamda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda ish haqi o'sishining iqtisodiy o'sishga ijobiy va salbiy ta'sirlari ko'rib chiqilib, O'zbekiston va boshqa davlatlar tajribasi asosida taqqoslama tahlil o'tkazilgan. Mehnat unumdorligi, inflyatsiya darajasi va real daromadlar o'rtasidagi aloqalar chuqur tahlil qilinadi. Ish haqi siyosatini samarali olib borish orqali iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy adolatni ta'minlash yo'llari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: ish haqi, iqtisodiy o'sish, mehnat unumdorligi, real daromad, inflyatsiya, makroiqtisodiy muvozanat, mehnat bozori, ijtimoiy adolat, ish bilan bandlik.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируется взаимосвязь заработной платы и экономического роста, их роль в макроэкономическом равновесии и их влияние на социально-экономическую стабильность. В исследовании рассматриваются положительные и отрицательные эффекты роста заработной платы на экономический рост, а также проводится сравнительный анализ на основе опыта Узбекистана и других стран. Глубоко анализируется взаимосвязь между производительностью труда, уровнем инфляции и реальными доходами. Показаны пути поддержки экономического роста и обеспечения социальной справедливости посредством эффективной политики заработной платы.

Ключевые слова: заработная плата, экономический рост, производительность труда, реальные доходы, инфляция, макроэкономическое равновесие, рынок труда, социальная справедливость, занятость.

ABSTRACT

This article analyzes the relationship between wages and economic growth, their role in macroeconomic balance and their impact on socio-economic stability. The study examines the positive and negative effects of wage growth on economic growth, and conducts a comparative analysis based on the experience of Uzbekistan

and other countries. The relationship between labor productivity, inflation rate, and real incomes is analyzed in depth. Ways to support economic growth and ensure social justice through effective wage policy are shown.

Keywords: wages, economic growth, labor productivity, real income, inflation, macroeconomic equilibrium, labor market, social justice, employment.

KIRISH

Har qanday davlatning iqtisodiy taraqqiyoti bevosita uning mehnat bozori va ish haqi siyosatiga bog'liq. Ish haqi - bu ishchi kuchiga to'lanadigan haq bo'lib, u nafaqat aholi farovonligining asosiy ko'rsatkichi, balki iqtisodiy o'sishning ham muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Iqtisodiy o'sish esa mamlakatda ishlab chiqarish hajmining, xizmatlar ko'lamining va yalpi ichki mahsulotning (YaIM) yildan-yilga ortib borishidir. Ushbu ikki omil o'rtasidagi muvozanatni saqlash, ya'ni ish haqining iqtisodiy o'sish sur'atlariga mutanosib bo'lishi jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy adolatni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shu bois, ushbu maqola orqali ish haqi darajasining iqtisodiy o'sishga qanday ta'sir ko'rsatishi, bu o'zaro bog'liqlikning qanday iqtisodiy mexanizmlar orqali yuzaga chiqishi va turli mamlakatlar misolida qanday tajribalar mavjudligini tahlil qilish dolzarb masala hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Ish haqi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi munosabat bo'yicha ko'plab iqtisodchilar tomonidan turli nazariyalar ilgari surilgan. Masalan, K. Marks ish haqini mehnat qiymatining bir qismi sifatida ko'rib, uni iqtisodiy adolatsizlik kontekstida baholagan. Boshqa tomondan, J. M. Keynes esa ish haqi va iste'mol o'rtasidagi bevosita bog'liqlikka urg'u berib, ish haqi oshishi umumiy talabni rag'batlantirishini ta'kidlagan. O'zimizning maxalliy olimlardan, N.M. Maxmudov fikricha "Iqtisodiy o'sish bevosita YaIM hajmining mutlaq va aholi jon boshiga hamda iqtisodiy resurs xarajatlari bar bir birligi hisobiga o'sishi, sifatining yaxshilanishi va tarkibining takomillashuvida ifodalanadi"¹ deb o'z fikrlarini bildirgan. Iqtisodchi olimlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ish haqi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy jihatdan ham murakkab va ko'p omilli jarayon hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

¹ N.M. Maxmudov, A.B. Shakarov, X.A. Ulashev, J.A. Shakarov. Makroiqtisodiyot. (Darslik) - T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» 2022, 454 bet.

Maqolada mavzu doirasidan kelib chiqqan holda ilmiy va nazariy tadqiqotlar o'rganilib, keng mushohada qilingan. Tadqiqotda qo'yilgan maqsadga erishish uchun aniq yo'nalish tanlab olingan. Sohaga doir statistik ma'lumot manbalarini o'rganish va tahlil qilish asosida tadqiqot strategiyasi belgilab olingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ish haqi iqtisodiyotdagi iste'mol talabining asosiy omillaridan biri sanaladi. Aholining daromadlari oshgani sari ularning iste'mol qilish salohiyati ham ortadi, bu esa ishlab chiqarish hajmining kengayishiga olib keladi. Shu jihatdan ish haqi o'sishi iqtisodiy o'sishga ijobiy turtki berishi mumkin. Ammo bu jarayon muvozanatli bo'lmasa, inflyatsiyaning oshishi yoki mehnat bozori beqarorligiga olib kelishi mumkin. Ish haqi o'sishining ijobiy va salbiy ta'sirlari bo'lib, ish haqi oshishining ijobiy ta'sirlar:

-ishchi kuchining motivatsiyasi oshadi;

-ichki iste'mol hajmi ko'payadi;

-ijtimoiy tenglik kuchayadi.

Salbiy ta'sirlarga keladigan bo'lsak:


-ish beruvchilar xarajatlarining ortishi natijasida ishsizlik xavfi;

-inflyatsiya bosimining kuchayishi;


-raqobatbardoshlikning pasayishi (ayniqsa eksportga yo'naltirilgan sohalarda).

Hozirda mamlakatimiz aholining aksariyat qismining nominal pul daromadlari o'sish tendentsiyasi yuzaga kelganiga qaramay, etarli darajada katta emas. Nominal hisoblangan ish haqi – ma'lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat. Jadval orqali aholining nominal ish haqisining 2020-2024 yillardagi o'sish tendensiyasini ko'rib chiqamiz(1-rasm).

Ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, 2024 yilgi nominal oylik maoshlar 2020 yilga nisbatan 52,5 % ga o'sganini ko'rishimiz mumkin.



1-rasm. O'rtacha oylik ish haqining yillar kesimidagi dinamikasi, yanvar-mart² (ming so'm)



2-rasm. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xodimlar sonining jamiga nisbatan ulushi³

² Nominal Hisoblangan O'rtacha Oylik Ish Haqi (qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, dastlabki ma'lumotlar)2024 – yil yanvar-mart

³ Korxona va tashkilotlarda (qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz) mehnat daftarchalari mavjud bo'lgan, o'rtacha oylik ish haqini hisoblashda hisobga olinganlar, yanvar-mart holatida

2-rasm ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, ish haqi oluvchilarning 38,5 %ni ta'lim sohasi, 18,1 %ni esa sog'liqni saqlash sohalariga to'g'ri keladi.

O'zbekiston iqtisodiy islohotlar davrida ish haqi o'sishi va iqtisodiy o'sish o'rtasida muayyan uyg'unlikka erishishga intilmoqda. So'nggi yillarda YaIM o'sishi bilan bir qatorda byudjet tashkilotlarida, sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarida ish haqi ham bosqichma-bosqich oshirib borilmoqda. Biroq, ish haqi o'sishi inflyatsiya darajasi bilan uyg'unlashmasa, aholining real daromadlari o'sish o'rniga pasayishi mumkin. Respublikamizda xam xar yili ish haqilar bosqichma bosqich oshirilib bormoqda. 2025-yil 1-iyuldan boshlab pensiyalar, nafaqalar hamda kam ta'minlangan oilalarga bolalar nafaqalari va moddiy yordam to'lovlari 10 %ga oshiriladi. 2025-yil 1-avgustdan boshlab esa budjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi va stipendiyalar miqdori ham 10 foizga oshirilishi belgilandi. Ya'ni, mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori amaldagi 1 mln 155 ming so'mdan 1 mln 271 ming so'mga oshirildi⁴.

Xalqaro tajriba xam shuni ko'rsatadiki, Germaniya, Janubiy Koreya va Skandinaviya davlatlarida, ish haqi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash uchun mehnat unumdorligi, innovatsiyalar va mehnatga haq to'lash tizimi birgalikda rivojlantirilishi lozim. Aynan shu omillar ish haqining haddan ortiq oshib ketmasligi yoki iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir qilmasligini kafolatlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, ish haqi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi mutanosiblik har qanday iqtisodiy siyosatning asosiy tarkibiy qismlaridan biridir. Ish haqi darajasining mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish hajmi bilan uyg'un tarzda o'sishi mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, aholining ijtimoiy holatini yaxshilaydi hamda ichki bozorni mustahkamlaydi. Shu bilan birga, ish haqi haddan tashqari tez o'sadigan bo'lsa, bu inflyatsiya, ishsizlik va raqobatbardoshlikning pasayishi kabi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Agar iqtisodiy o'sish yuqori bo'lsa-yu, ish haqi oshmasa, bu ijtimoiy tengsizlik, iste'mol darajasining pasayishi va aholining turmush darajasining yomonlashuviga olib keladi. Aksincha, ish haqi o'sishi iqtisodiy o'sish bilan muvozanatda bo'lsa, bu aholi farovonligini ta'minlaydi, ichki talabni kuchaytiradi va iqtisodiyotda ijobiy sikl hosil qiladi. Davlat siyosati ish haqi o'sishini iqtisodiy o'sish sur'atlariga moslashtirishga, mehnat unumdorligini oshirishga va adolatli taqsimotni ta'minlashga qaratilishi lozim.

Shu bilan birga, davlat siyosatida ish haqi va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi muvozanatni saqlash, ishchi kuchi unumdorligini oshirish, innovatsion

⁴ <https://www.gazeta.uz/oz/2025/06/03/ish-haqi/>

yondashuvlarni qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy adolatni ta'minlash dolzarb ahamiyatga ega. O'zbekiston ham bu yo'nalishda bosqichma-bosqich islohotlar olib bormoqda, ammo bu jarayonda xalqaro tajribalardan oqilona foydalanish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. N. M. Maxmudov, A. B. Shakarov, X. A. Ulashev, J. A. Shakarov. Makroiqtisodiyot. (Darslik) - T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» 2022, 454 bet.
2. G'. E. Zaxidov, M. T. Asqarova, Z. A. Djumayev, L. F. Amirov, H. A. Hakimov.
3. Makroiqtisodiyot. Darslik. T.: IQTISODIYOT, 2019
4. N. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 9 th edition. Harvard University. NY.: Worth Publishers, 2016
5. Миропольского Д.Ю., Бродский Т.Г., Макроэкономика. Учебник для вузов. – СПб.: Питер, 2018. – 368 с.
6. NOMINAL HISOBLANGAN O'RTACHA OYLIK ISH HAQI(, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, dastlabki ma'lumotlar). 2024 – yil yanvar-mart.
7. www.mineconomy.uz - O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi sayti. <https://www.gazeta.uz/oz/2025/06/03/ish-haqi/>